



ZAMONAVIY JAMIYATDA YOSHLARNING KREATIV SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH

Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi

*Alfraganus Universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti, Psixologiya (faoliyat turlari)
yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi rivojlanayotgan zamonaviy jamiyat sharoitida yoshlarning kreativ salohiyatini rivojlantirish zarurati va asosiy omillari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, har bir yosh avloddagi kreativlikni rivojlantirishda ta'lim va tarbiya, ijtimoiy muhit hamda psixologik yondashuvlarning roli va ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kreativ salohiyat, innovatsion yondashish, noan'anaviy fikrlash, tasavvur, fantaziya, tafakkur, tafakkurni moslashuvchanligi, global muammolar, Amerikalik psixolog J.P.Guilford, E.Paul.Torrance, "Torrance testlari",

Hozirgi kunda raqobat va tezkor texnologik rivojlanish kuzatilayotgan ushbu zamonaviy sharoitda yoshlarning kreativ salohiyatini rivojlantirish hayotiy zaruratga, go'yoki muhim ehtiyojga aylanib kelmoqda. Chunki rivojlanayotgan zamonaviy jamiyat innovatsion g'oyalarni, turli muammolarga esa noodatiy yechimlarni talab qilmoqda. Ilg'or texnologiyalarga esa ehtiyoj ortib bormoqda. Bularni yaratishda esa insonda noan'anaviy fikrlash va yangiliklarga tashnalik muhim ro'l kasb etadi. Buni esa hozirgi paytda insonni yoshligidan singdirib kelish muhim hisoblanadi. Sababi yoshlikdagi bilim misoli toshga o'yib yozilgan bitikdek bo'ladi, buning natijasida yoshlikdan ko'nikma shakllantirib olish mumkin. Insonda oddiy, sodda fikrlash shakllari o'z samarasini yo'qotayotgan bir vaqtda, kreativ fikrlash, tafakkur qilish va yangiliklar yaratish qobiliyati shaxsiy muvaffaqiyat va jamiyat taraqqiyoti uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.



Креатив salohiyat – bu shaxsning mutlaqo yangi bo‘lgan o‘zgacha g‘oyalar yaratish, mavjud vaziyatga innovatsion yondashish, kuzatilayotgan jarayonlarda noan‘anaviy fikrlash va muammolarga nisbatan oson ammo noodatiy yechimlar topish qobiliyati hisoblanadi. Yoshlar o‘rtasida kreativ salohiyatga ega bo‘lganligini uning tafakkurining moslashuvchanligi, tasavvur va fantaziyalarining kuchliligi, yuzaga kelayotgan muammolarni turlicha ko‘ra olish va o‘zgacha yo‘l bilan hal qilish mahorati, mutlaqo yangi g‘oyalar va usullar yaratishga intilish kabi hislatlari boshqalaridan ajratib turadi.

Yoshlar o‘rtasida kreativ salohiyatni rivojlantiruvchi asosiy omillarga ta‘lim tizimi, ijtimoiy muhit, shaxsiy motivatsiya va rag‘batlantirish jarayonlarini misol qilish mumkin.

Ta‘lim jarayonlarida mustaqil fikrlash, loyiha asosida o‘qitish va ijodiy topshiriqlardan foydalanish kreativ salohiyatni oshirishga o‘z tasirini ko‘rsatadi. Ijtimoiy muhitda kechadigan jarayonlar ya‘ni ochiq va erkin fikr almashiladigan, tanqidiy fikrni to‘g‘ri qabul qilib undan foydalana olgan jamiyat kreativlikni rivojlantiradi.

Shaxsiy motivatsiya va rag‘batlantirish natijasida o‘zini rivojlantirishga intilish, mustaqil o‘rganish kabi kuchli hohishlarni paydo qiladi.

Kreativ salohiyatni rivojlantirish uchun jamoaviy ishlash jarayonlari muhim hisoblanadi, jamoaviy g‘oyalar ishlab chiqish kreativ tafakkurni faollashtiradi, bir muammoga jamoa ichida bir nechta yechimlar taklifini ko‘rib chiqib ko‘nikma hosil qilish mumkin. Turli millatning madaniyat va qadriyatlarini o‘rganish jarayonida esa tafakkurini kengaytirish mumkin. Tasviriy san‘at va dizaynerlik orqali ijodkorlikni kuchaytirishga erishish mumkin. Kreativ salohiyatni rivojlantirish zarur ekanligi texnologik taraqqiyotda, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish jarayonlarida, murakkab global hisoblangan muammolarga yechim izlash jarayonlarida ko‘zga yaqqol tashlanmoqda.



Sun'iy intellekt ham rivojlanib borayotganligi sababli juda ko'plab an'anaviy bo'lgan bir qator kasblar o'zgarib bormoqda bu esa hozirgi zamonda har bir shaxsdan ijodkorlik, kreativ fikrlay olish qobiliyatini talab qiladi.

Global muammolar hisoblangan iqlim o'zgarishi, sog'liqni saqlash tizimidagi muammolar, resurslar tanqisligi kabi muammolar odatdagi yondashuvlar va yechimlardan tashqari noodatiy tarzda kreativ fikrlab yangicha yondashuvni talab qiladi. Kreativ salohiyatga ega bo'lgan yoshlar jamiyatda innovatsion yechimlarni taklif qilib, muammolarni kamaytirish yoki butunlay yo'q qila olish chora tadbirlarini ishlab chiqishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti **Islom Karimov**. *“Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”* asarida *yoshlar tarbiyasi, ma'naviy yetuklik, mustaqil va ijodiy fikrlashning jamiyat rivojidagi o'rnini haqida keng fikr yuritib o'tgan.*

– *Ayniqsa, 2–3-boblar yoshlarga bo'lgan e'tibor va ijodiy salohiyatni rivojlantirish mavzusiga bag'ishlangandir.*

Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim muassasalarida yosh avlodning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun Ijodiy loyiha asosida o'qitish texnologiyalarini joriy qilinmoqda, talabalarni mustaqil tadqiqot faoliyatiga jalb etilmoqda, turli munozarali jarayonlar va rolli o'yinlardan foydalanib kelinmoqda. Kreativlik salohiyatini rivojlantirishning ahamiyati katta ekanligi va kreativlikni rivojlantirish borasida bir qator mutaxassislar o'z fikrlarini bildirib o'tishgan. Masalan, **Amerikalik psixolog: Guilford (J.P. Guilford)** —

"U kreativlikni inson tafakkurining muhim qismi sifatida ko'radi va divergent (erkin, ko'p yo'nalishli) fikrlashni rivojlantirishni asosiy omil deb hisoblaydi"

Guilford ta'kidlashicha, "kreativ salohiyatni rivojlantirish uchun erkin fikrlash, tasavvurni rag'batlantirish, va turli muammolar yechimini qidirish zarur"



Shular qatorida ijodiy fikrlash sohasida yetakchi tadqiqotchilardan biri hisoblangan **Torrance (E. Paul Torrance)** — ham o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan.

U kreativlikni rivojlantirish uchun qiziqishni saqlab qolish, sinovlardan qo‘rqmaslik, va original g‘oyalarni rag‘batlantirish muhimligini aytadi.

"Torrance testlari" orqali ijodiy qobiliyatni o‘lchash uslublarini ishlab chiqqan.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, zamonaviy jamiyatda yoshlarning kreativ salohiyatini rivojlantirish, innovatsion taraqqiyot va raqobatbardoshlikning asosiy garovi ekanligini hisobga olib unga e‘tiborni kuchaytirish lozimdir. Kreativ yoshlar kattadan katta ijtimoiy o‘zgarishlarning sababchisiga aylanadi, jamiyatning kuchli rivojlanishiga, madaniy va iqtisodiy salohiyatini oshirishga katta hissa qo‘shadi. Shu bois, ta'lim, ijtimoiy muhit va psixologik yordam vositalari orqali insonning kreativ salohiyatini rivojlantirish uchun harakat qilish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mahkamova D. Yoshlarda kreativ fikrlashni rivojlantirish metodikasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
2. Normurodov Q. Shaxs psixologiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2020
3. Xodjayev N.H. Ijtimoiy psixologiya asoslari. — Toshkent: Fan nashriyoti, 2019.
4. Runco M.A. Kreativlik: nazariyalar va mavzular: tadqiqot, rivojlanish va amaliyot. — Academic Press, 2007
5. Lebedev O.E. Kreativ tafakkur: zamonaviy yondashuvlar. — Moskva: Smisl, 2011



6. Ilyin Ye.P. Kreativlik, qobiliyat va iqtidor psixologiyasi. — Sankt-Peterburg: Piter, 2009
7. Torrance, E. Paul. Ijodiy fikrlashni o‘lchash va rivojlantirish haqida 1966.
8. Guilford, J.P. Inson intellekti va kreativlik haqidagi asosiy asari 1967
9. Islom Karimov. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.